

# Yashil

# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 290 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

## **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari .....	16
<b>Qo'ng'iro'tboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna</b>	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda .....	20
<b>Muxiddin Kalonov</b>	
“Yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish .....	24
<b>Muhammadiyeva Maftuna</b>	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati .....	27
<b>Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna</b>	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
<b>Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich</b>	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана.....	40
<b>Ахмедходжаев Равшан Темурович</b>	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari .....	49
<b>Toyirov Yunus Alamovich</b>	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
<b>Rustamov Alisher Raxmataliyevich</b>	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
<b>Ustadjalilova Xurshida Aliyevna</b>	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
<b>Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich</b>	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
<b>Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich</b>	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
<b>Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li</b>	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
<b>Yuldashev Iskandar Bahromovich</b>	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar .....	86
<b>Jiyanova Nargiza Esanboyevna</b>	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
<b>Z. Abdikarimova, S. Madaminov</b>	
Savdo korxonalarini boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
<b>Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov</b>	
Sociological Assessment of Migration Processes .....	102
<b>Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli</b>	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy .....	112
<b>Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich</b>	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
<b>Эркинов Шахзод Баходир ўғли</b>	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....	125
<b>Abirkulova Sohijamol</b>	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan) .....	130
<b>Bakhrom Nomazov</b>	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	136
<b>Bozorova Saxobat Abdujapparovna</b>	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
<b>Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli</b>	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli .....	148
<b>Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b>	
Agroklastarlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish .....	155
<b>G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li</b>	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks .....	160
<b>Juraev K. T.</b>	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish .....	164
<b>Mamasoatov Dilshod Ravshanovich</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati.....	169
<b>Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich</b>	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
<b>Rahmatullayeva Dilbar Olimovna</b>	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish..	181
<b>Raxmatov Akmal Anvar o'g'li</b>	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
<b>Rofeeva Rukhshona Shavkatovna</b>	
Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash tizimi.....	192
<b>Sabirova Asal Shuhratovna</b>	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region .....	196
<b>Shakhzod Zokhidov</b>	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish .....	202
<b>Kadirova Shaxnoza Ilhomovna</b>	
Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
<b>Usmonov Baxodir Suvonqulovich</b>	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari .....	211
<b>Nasimov Shavkat Vasiyevich</b>	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
<b>Zunnunova Xulkar Muxtorovna</b>	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish.....	225
<b>Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich</b>	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari .....	229
<b>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</b>	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
<b>Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich</b>	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
<b>Eshonqulov Azamat Abdiraximovich</b>	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlari yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....	245
<b>Xidirov Alimardon Dagarovich</b>	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English .....	248
<b>Nilufar Turdiyeva</b>	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati .....	252
<b>Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li</b>	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi .....	256
<b>G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev</b>	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации .....	260
<b>Каюмова Паризода</b>	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari...	266
<b>G. I. Abdulxamidova</b>	
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива .....	272
<b>Shahzad Zokhidov</b>	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise .....	275
<b>Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich</b>	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан .....	282
<b>Холбекова Дилобар Расулжон кизи</b>	



# O'ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYA TIZIMIGA INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH



**Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna**

I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
professori



**Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya  
akademiyasi magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlash tizimini takomillashtirishda xalqaro suveren kredit munosabatlarining o'rni, xalqaro obligatsiyalar bozorida qimmatli qog'ozlarni joylashtirish orqali xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslarni jalb etish imkoniyatlari asoslangan. O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlash jarayonini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** xalqaro integratsiya, xalqaro moliya tizimi, xalqaro kapital bozori, korporativ yevroobligatsiya, xalqaro fond birjasi, xalqaro obligatsiya.

**Abstract:** The article focuses on the role of international sovereign credit relations in improving the system for ensuring the integration of Uzbekistan into the international financial system, the possibilities of attracting financial resources from the international capital market by placing securities on the international bond market. A scientific proposal and practical recommendations for improving the system for ensuring the integration of Uzbekistan into the international financial system have been formulated.

**Key words:** international integration, international financial system, international capital market, corporate Eurobonds, international stock exchange, international bonds.

**Аннотация:** В статье акцентируется внимание на роли международных суверенных кредитных отношений в совершенствовании системы обеспечения интеграции Узбекистана в международную финансовую систему, возможностях привлечения финансовых ресурсов с международного рынка капитала путем размещения ценных бумаг на международном рынке облигаций. Сформулированы научное предложение и практические рекомендации по совершенствованию системы обеспечения интеграции Узбекистана в международную финансовую систему.

**Ключевые слова:** международная интеграция, международная финансовая система, международный рынок капитала, корпоративные еврооблигации, международная фондовая биржа, международные облигации.



## KIRISH

Mamlakatimizda xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslarni jalb qilish orqali aksiyadorlik jamiyatlarini qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hamda xalqaro suveren kredit reytingini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro moliya bozori ishtirokchilariga aylanishi ularning xalqaro integratsiyalashuv jarayonlarini oshirish bilan birga ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatini yanada oshiradi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ichki manbalar hisobiga moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, biroq moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning ortib borishi xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslarni jalb qilishning zaruratini vujudga keltiradi. Bugungi kunda O'zbekiston mustaqillik tarixida ilk bor korporativ yevroobligatsiyalarni xalqaro fond birjasida joylashtirib, bular bo'yicha dastlabki ijobiy natijalarga erishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O'zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi. Energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo'l qurilishi, qishloq va suv xo'jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi"<sup>[1]</sup>. Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamligini ta'minlashga hamda xususiy, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar uchun Respublikaning investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shunday bo'lishiga qaramasdan, O'zbekistonning yetakchi banklari va yirik korxonalar tomonidan korporativ reytinglarni olish hamda davlat kafolatisiz xorijiy investitsiya va qarzlarni jalqilish bo'yicha Respublikaning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradigan mamlakatning suveren kredit reytingini olish zarurligini ko'rsatmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirishga doir keng ko'lamli tadqiqotlar xorij iqtisodchi olimlaridan V.Ropke ilmiy izlanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot ishida mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashda xalqaro savdo munosabatlarining o'rni va uning rivojlanish mexanizmiga ustuvorlik beriladi<sup>[2]</sup>. A.Ye.Lebedev tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot izlanishlarida globallashtirish jarayonlarini mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirining asosiy yo'nalishlari; inflyatsiya sur'atlarini pasaytirish, mustaqil pul-kredit siyosatini yuritish imkoniyatlarini cheklash, milliy iqtisodiyotlarning dollarlashuvini kuchaytirish nuqtayi nazaridan moliyaviy globallashtirishning milliy moliya tizimiga ta'siri bilan bog'liq tendensiyalar aniqlangan<sup>[3]</sup>. A.V.Yakimov tadqiqotlarida mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasi - ilmiy-texnikaviy va ilmiy-texnikaviy resurslarni maksimal darajada oshirishga qaratilgan moliyaviy va investitsion hamkorlik sohasidagi kelishilgan uzoq va o'rta muddatli tadbirlar majmui deb ta'rif beriladi<sup>[4]</sup>.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan B.O.Tursunov, M.Mamadolimova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot izlanishlarida O'zbekistonning xalqaro darajadagi raqobatbardoshligini ta'minlashda xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuv jarayonlarining o'rni yuqori darajada baholanadi<sup>[5]</sup>. Sh.Sh.Yovqochev mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashda xalqaro moliya institutlarining rolini yuqori darajada e'tirof etib, O'zbekistonga Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan kredit liniyalari hajmini oshirish bilan bog'liq atroflicha xulosalar qilingan<sup>[6]</sup>.

Maqolada mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyati hozirgi holati, uning rivojlanish isstiqbollari va xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mavzuga doir statistik malumotlar tahlili etilgan. Mavjud muammolar aniqlanib, muammo yuzasida xulosa va takliflar berilgan. D.I.Zokirova, S.X.Mavlonov, U.A.Yuldashevalar mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyati hozirgi holati, uning rivojlanish isstiqbollari va xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mavzuga doir statistik malumotlar tahlili etilgan<sup>[7]</sup>.

Yuqoridagi tadqiqotlarda mamlakatning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish bilan bog'liq mavjud muammolar aniqlangan bo'lishiga qaramasdan bu borada tegishli xulosa va takliflar berilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

2020-yilning fevral oyida dunyoning eng obro'li birjalaridan hisoblangan London fond birjasida O'zbekiston tarixida birinchi marta yevrobondlar, ya'ni yevroobligatsiyalarni bozorga joyladi. Bunda 5 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni 4,75 foizdan, 10 yillik 500 million dollarlik yevrobondlarni esa 5,375 foizdan joylashtirdi.

Qarz obligatsiyalarini qaytarish muddatlari 2024-yil va 2029-yillar qilib belgilandi. Yevrobondlarning aksariyatini - 75 % va 78%ini boshqaruv fondlari, 20% va 16 foizini sug'urta kompaniyalari va pensiya fondlari, 5% va 6% foizini banklar xarid qildi. Jami joylashtirilgan 1000,0 million dollarlik xalqaro obligatsiyalar uchun dastlabki besh yilda to'lanadigan bir yillik foizli xarajatlar 56,63 million dollarga teng, keyingi besh yilda faqat 10 yillik muddatli xalqaro obligatsiyalar bo'yicha foizli to'lovlar amalga oshirilib, har yillik miqdori 26,88 million dollarni tashkil etadi. 10 yil davomida ushbu xalqaro obligatsiyalar bo'yicha to'lanadigan foizli xarajatlarning umumiy miqdori 387,50 million dollarga teng <sup>[6]</sup>.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta'minlash, shuningdek, tashqi moliyalashtirish hajmini kengaytirish va manbalarini diversifikatsiyalash, xorijiy investorlar uchun mamlakatning jozibadorligini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi "Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyala bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3877-son qarori qabul qilingan edi.

Mazkur qaror iqtisodiyotning real sektori korxonalariga xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Shunga ko'ra, amaliyotini tahlil qilar ekanmiz, mazkur jarayonlarda xalqaro yirik moliya institutlari Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabilarning ulushi yuqori ekanligini ta'kidlash lozim.

Keyingi yillarda mamlakatimiz korporativ sektorida faoliyat yuritayotgan yirik aksiyadorlik kompaniyalarining investitsion dasturlarini moliyalashtirish va birgalikdagi loyihalarini amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot bankining mablag'lari bilan ishtiroki yuqori o'rinni egallab kelmoqda. 2015–2019-yillar mobaynida korporativ sektorning turli tarmoqlari va yo'nalishlari 2020 million AQSH dollari miqdorida mablag'lar yo'naltirilgan bo'lsa shundan yuqori ulushni 500 million. AQSH dollarini qishloq joylarida arzon-uy joylarni qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan ajratilgan jami kreditlarning umumiy hajmi 1569 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, shundan bugungi kundagi kredit portfelining umumiy miqdori 700 million dollarni tashkil etmoqda. Jahon banki tomonidan amalga oshirilgan moliyalashtirishning umumiy summasi 6741 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, amaldagi loyihalar bo'yicha moliyalash summasi 4338 million dollardan iborat bo'lganligini ta'kidlashimiz mumkin. OTB tomonidan Markaziy Osiyodagi moliyalashtirilayotgan loyihalarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi masalasiga kelsak, 80% loyihalar to'rtta yo'nalish bo'yicha amalga oshirilmoqda: energetika, transport, moliya sektori va davlat boshqaruvi sohasida.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan xalqaro kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilish amaliyotini rivojlanib borayotganligi sharoitida, mazkur jarayonlarga nafaqat tijorat banklari balki iqtisodiyot real sektori korxonalarini kengroq jalb qilish lozim. Ushbu amaliyotni takomillashtirish orqali mazkur aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitalida davlatning ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish, xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuvni kuchaytirish, mustaqil xalqaro reyting indekslariga ega bo'lish va zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Fikrimizcha, O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- mamlakatning hududiy va tarmoq tizimini takomillashtirish nuqtayi nazardan investitsiyalashga ta'sir etuvchi omillarni muvofiqlashtirgan holda qulay investitsion muhitni yaratish;
- iqtisodiyotning tarmoq va sohalari doiraisda xorijiy bank kreditlari salmog'ini oshirishga doir imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish;
- xalqaro moliya institutlarining respublikamizda ochgan kredit liniyalaridan to'la to'kis foydalanishni ta'minlash;
- xalqaro obligatsiyalar savdosini tashkil etish bo'yicha yez qaror qabul qilishlari uchun hisob va xisobot tizimi samaradorligini oshirish kabi qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020 y. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>
2. Ropke W. International order and economic integration. – NY, 2012.
3. Лебедев А.Е. Финансовая глобализация в контексте проблем общемирового, регионального и национального (российского) развития: Дис. д-ра экон. наук: Москва, 2004.
4. Якимов А.В. Повышение интенсивности процессов международной интеграции в экономике // Вопросы экономики и управления. – 2020. – № 1. – С. 151.
5. Tursunov B. O., Mamadolimova M. M. National economy: competitiveness and factors to increase it //International scientific-electronic journal—International Finance and Accounting. – 2019. – №. 2.
6. Ёвқочев Ш.Ш. Халқаро молия институтларининг Ўзбекистон Республикасидаги инвестицион фаолияти таҳлили // Экономика и финансы (Узбекистан). 2019. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hal-aro-moliya-institutlarining-zbekiston-respublikasidagi-investitsion-faoliyati-ta-lili>.
7. Zokirova D.I, Mavlonov S.X, Yuldasheva U.A. (2023). O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvi va tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish masalalari. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 19(4), 18–23. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/5>
8. [www.mineconomy.uz](http://www.mineconomy.uz)

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

